Ma'lumki, umumiy iqtisodiy o'sish mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) yoki yalpi milliy mahsuloti hajmi bilan o'lchanadi [1] [2]. Hududiy jihatdan esa yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi bu vazifani bajaradi. U ma'lum bir hududda bir yil davomida yaratilgan barcha yakuniy mahsulot va xizmatlarning bozor qiymatini ifodalaydi [3] hamda hudud iqtisodiy salohiyatining kengayishini, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish sur'atini ko'rsatadi. YaHM hajmining o'sishi iqtisodiy faollik oshganini, investitsiyalar kirib kelayotganini, aholi daromadlari va bandlik darajasining yaxshilanayotganini anglatadi. Shu bois YaHM iqtisodiy rivojlanishni baholashda asosiy mezon sifatida qo'llaniladi va hududiy iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyatida 2010-2024 yillar oralig'ida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi barqaror ravishda oshib borgan. Agar 2010 yilda YaHM 3 394,7 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 54 354,1 mlrd so'mga yetgan. Bu 15 yil ichida qariyb 16 baravarga o'sishni anglatadi. Ayniqsa 2015-2024 yillarda mahsulot hajmida yillik o'sish yuqori sur'atlarda saqlanib qolgan, bu esa iqtisodiy faollikning ortib borayotganini ko'rsatadi. Eng katta yillik sakrashlar 2021-2023 yillarda kuzatilgan bo'lib, bu davrda hududda infratuzilma, sanoat yoki xizmat ko'rsatish sohalarida sezilarli rivojlanish bo'lgani taxmin qilinadi (1-rasm).

Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlari (foiz hisobida) esa 2010 yildagi 110,9 foizdan boshlab keyingi yillarda asta-sekin pasaygan. 2020 yilda bu ko'rsatkich 102,7 foizgacha tushgan bo'lsa-da, 2021 yilda yana 109,3 foizga ko'tarilgan. Bu holat pandemiya ta'siridan keyin iqtisodiyotning tez tiklana boshlaganini anglatadi.



2022-2024 yillarda o'sish sur'atlari 104-106 foiz oralig'ida saqlanib, barqaror, lekin ehtiyotkor iqtisodiy o'sishni ko'rsatmoqda. Umuman olganda, Surxondaryo viloyatining YHM hajmi ham, o'sish sur'atlari ham hududda ijobiy iqtisodiy dinamikani aks ettiradi.

Ma'lumki, Yalpi hududiy mahsulotning kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan qiymatlarini prognoz qilish hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda, resurslardan samarali foydalanishda hamda investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prognozlangan ko'rsatkichlar orqali iqtisodiy o'sish sur'atlari baholanadi, mavjud imkoniyatlar va xavf-xatarlar oldindan aniqlanadi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari yanada aniqroq rejalashtiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yalpi ichki mahsulotning prognozlashtirish bo'yicha bir qancha olimlar izlanishlar olib brogan. Jumladan, H.M. Hassan Ali, A.M. Ali Haleeb [4] 1960-2018 yillardagi Sudanning yalpi ichki mahsulotini ARIMA modeli bilan tahlil qilgan. Tanlangan model ARIMA(1, 1, 1) bo'lib, u ma'lumotlarga yaxshi mos keladi va prognozlarini ichki sinovlarda taxminiy xatolar darajasi 5% ichida ekanligi aniqlangan.

M.M. Miah, M. Tabassum, M.Sh. Rana [5] lar 1960-2017 yillardagi Bangladeshdagi YaHM vaqtli qatorini tahlil qilishgan. Vaqtli qator stasionarlikka olib kelinganidan so'ng ARIMA(1, 2, 1) modeli tanlangan. Prognozlar ko'rsatkichlarning o'sishini, iqtisodiy o'sish sur'atining davom etishini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ARIMA modeli yordamida prognoz qilish — F. Muslimova [6] maqolasida tahlil qilingan. YalM, sanoat mahsuloti, investitsiyalar, aholi daromadlari kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ARIMA modeli orqali tahlil qilingan. Shuningdek, K. Kinjaev va B. Turaev [7] lar tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari vaqtli qatorlari ARIMA/SARIMA modellari bilan prognoz qilingan.

Ushbu tadqiqotlarda ARIMA modellari makroiqtisodiyotning turli ko'rsatkichlarini (YalM, investitsiyalar, raqamli ko'rsatkichlar) prognoz qilishda qo'llanilgan. Stasionarlik testi, differensiallash va model identifikatsiyasi (PACF, ACF) kabi bosqichlarda tahlil ishlari olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Prognozlashda ARIMA (Autoregressive Integrated Moving Average) modellarining qo'llanilishi vaqtli qatorlar asosida YaHM dinamikasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu model yordamida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kuzatiladigan mavsumiylik, trend va tasodifiy tebranishlarni ajratib olish mumkin, natijada bashoratning aniqligi oshadi. ARIMA modellarining ahamiyati shundaki, ular statistik jihatdan barqaror prognoz natijalarini beradi va qaror qabul qiluvchilarga asosli yo'l-yo'riqlar taklif qiladi.

ARIMA modeli avtokorrelyatsiya (autoregressive), differensiallash (integrated) va harakatlanuvchi o'rtacha (moving average) komponentlarini o'z ichiga olgan statistik model hisoblanadi. Ushbu model vaqtli qator ma'lumotlaridagi ichki bog'liqlikni o'rganib, differensiallash orqali trendni bartaraf etadi va xatoliklarni kamaytiradi. Natijada ARIMA modeli iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash va ularning kelajakdagi qiymatlarini yuqori darajada ishonchli prognozlash imkonini beradi.

Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha [8]:

$$\Delta^d y_t = a + \sum_{i=1}^p \varphi_i \Delta^d y_{t-i} + \sum_{j=1}^q \theta_j \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t, \quad (1)$$

bu yerda, a , φ_i , θ_j – model parametrlari; p – avtokorrelyatsiya darajasi, d – differensiallash tartibi, q – harakatlanuvchi o'rtacha tartibi; y_t – vaqtli qator.

ARIMA modeli orqali modellashtirish odatda quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Vaqt qatorini tahlil qilish va stasionarlikni tekshirish. Avvalo, mavjud vaqtli qator ma'lumotlari yig'iladi va undagi trend hamda mavsumiylik aniqlanadi. Agar qator stasionar bo'lmasa (ya'ni o'rtacha va dispersiyasi vaqt davomida o'zgarib tursa), uni differensiallash orqali stasionarlashtirish zarur.

2. Modelning tartiblarini (p , q) ni aniqlash. Model tartiblari avtokorrelyatsiya (ACF) va xususiy avtokorrelyatsiya (PACF) funksiyalarini tahlil qilish yoki AIC, BIC kabi axborot mezonlari orqali tanlanadi.

3. Modelni baholash. Tanlangan tartiblar asosida ARIMA modeli tuziladi va uning koeffitsientlari statistik usullar (haqiqatga maksimal o'xshashlik usuli) yordamida hisoblanadi.

4. Modelning sifatini tekshirish. Qoldiq (residual) larni tahlil qilish orqali modelning mosligi baholanadi. Agar qoldiqlar oq shovqin (tasodifiy taqsimlangan) ko'rinishda bo'lsa, model yetarlicha yaxshi hisoblanadi. Shuningdek, model parametrlarining statistik ahamiyatligi hisob-kitob qilinadi. Bunda ularning ahamiyatligini ifodalovchi p qiymatlar belgilangan ahamiyatlilik darajasidan katta ekanligi tekshirib ko'riladi.

5. Prognozlash. Tekshirilgan va tasdiqlangan ARIMA modeli asosida kelajak davr uchun YaHM ning




qiymatlari prognoz qilinadi.

Tahlil va natijalar

Surxondaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti ko'rsatkichi vaqtli qatori yuqorida keltirilgan bosqichlarda modellashtirildi:

1. Vaqtli qatorni tahlil qilish va stasionarlikni tekshirish. Ushbu bosqichda vaqtli qatorning statsionarligi vizual tahlil orqali tekshirildi. Ba'zan vaqtli qatorlar statsionar bo'lmisligi mumkin [9].



1-rasm. Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti (mlrd so'm) va uning o'sish sur'atlari (foiz) [10].

Agar 1-rasmga nazar tashlansa, vaqtli qatorda mavsumiylik mavjud emasligi hamda trend mavjudligi (dinamika bir maromda o'sib borayotganligi) ni payqash qiyin emas. Bu esa vaqtli qatorning statsionar emasligiga dalil bo'ladi. Uni differensiallash zarur.

Tajribalarda vaqtli qator differentsiallandi hamda uning, ya'ni vaqtli qator 1-farqining statsionarligi kengaytirilgan Dikki-Fuller testi yordamida baholandi. Sababi, differentsiallash natijasida 1-farqlarning chizmasini ko'zdan kechirib (vizual tahlil qilib), statsionarlik haqida hulosalar qilish imkoni bo'lmadi. Tajriba natija 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Kengaytirilgan Dikki-Fuller testi natijalari¹

```
Augmented Dickey-Fuller test for d_YaHM
testing down from 5 lags, criterion AIC
sample size 8
unit-root null hypothesis: a = 1

test without constant
including 5 lags of (1-L)d_YaHM
model: (1-L)y = (a-1)*y(-1) + ... + e
estimated value of (a - 1): 0.912156
test statistic: tau_nc(1) = 3.28586
asymptotic p-value 0.9998
1st-order autocorrelation coeff. for e: -0.048
lagged differences: F(5, 2) = 4.101 [0.2076]

test with constant
including 5 lags of (1-L)d_YaHM
model: (1-L)y = b0 + (a-1)*y(-1) + ... + e
estimated value of (a - 1): 0.501554
test statistic: tau_c(1) = 1.53906
asymptotic p-value 0.9994
1st-order autocorrelation coeff. for e: -0.841
lagged differences: F(5, 1) = 4.180 [0.3545]
```


1-jadvalda ADF testi yordamida Surxondaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) vaqtli qatori 1-farqining stasionarligi tekshirilgan. Natijalarda p-qiymatlar juda yuqori (0.99 ga yaqin) bo'lib, bu YaHM qatori o'zgaruvchan trendga ega ekanini va stasionar emasligini ko'rsatadi. Shu sababli qator differentsiallash (farqlar olish) orqali stasionarlashtirildi va ikkinchi tartibli differentsiallash (d=2) eng maqbul yechim sifatida tanlandi. Hozircha, tajriba qilinayotgan model ushbu ko'rinishda: ARIMA(p, 2, q).

¹ Muallif ishlanmasi



2. Modelning tartiblari - p, q larni aniqlash. ARIMA(p, 2, q) ning tartiblarini baholash maqsadida ACF va PACF korrelogrammalari ko'zgan kechirildi (2-rasm).

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, ACF eksponensial ko'rinishda pasaymoqda. Bunday holat, avtoregressiyaga xos. PACF esa 1-lagdan keyin keskin uzilish bo'lganligini ko'rsatmoqda. Bu ikkita holatni bildiradi. Birinchisi, ACF orqali aniqlangan avtoregressiyaning p tartibi 1 ga teng ekanligini hamda ikkinchisi jarayon harakatlanuvchi o'rtachaga xos emasligi (q=0) ekanligini bildiradi.



2-rasm. Avtokorrelyatsiya va xususiy avtokorrelyatsiya funksiyalari².

Biroq, tajribalarda ARIMA(1, 2, 0) modeli parametrlari statistik ahamiyatli bo'lmadi. Shu sababli, AIC, BIC va HQC axborot mezonlari yordamida p va q tartiblar aniqlandi (2-jadval).

2-jadval. AIC, BIC va HQC axborot mezonlari³

Estimated using AS 197 (exact ML)

Dependent variable YaHM, T = 13

Criteria for ARIMA(p, 2, q) specifications

p, q	AIC	BIC	HQC	loglik
0, 0	233.3894	234.5193	233.1571	-114.6947
0, 1	229.3379*	231.0327*	228.9895*	-111.6689
0, 2	231.3167	233.5765	230.8522	-111.6584
0, 3	232.4728	235.2976	231.8922	-111.2364
1, 0	233.0073	234.7021	232.6589	-113.5036
1, 1	231.3229	233.5827	230.8584	-111.6614
1, 2	233.3034	236.1282	232.7228	-111.6517
1, 3	233.5439	236.9336	232.8471	-110.7719
2, 0	234.4286	236.6884	233.9641	-113.2143
2, 1	232.9756	235.8003	232.3950	-111.4878
2, 2	234.6118	238.0015	233.9151	-111.3059
2, 3	234.9275	238.8821	234.1146	-110.4637
3, 0	233.4065	236.2312	232.8259	-111.7032
3, 1	234.9401	238.3298	234.2433	-111.4700
3, 2	235.0056	238.9602	234.1927	-110.5028
3, 3	235.7001	240.2197	234.7711	-109.8501

‘*’ indicates best, per criterion

Log-likelihood (‘loglik’) is provided for reference

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



Gretl dasturi yordamida ARIMA(p, 2, q) modeli uchun turli kombinatsiyalar sinovdan o'tkazildi. AIC, BIC va HQC mezonlariga ko'ra eng yaxshi natija ARIMA(0, 2, 1) modelida kuzatilmadga (2-javal). Bu model YaHM qatori uchun hech qanday avtokorrelyatsion ($p=0$) komponent talab qilmasligini, ammo ikkinchi tartibli differensiallash ($d=2$) va bitta harakatlanuvchi o'rtacha ($q=1$) elementi yetarli ekanini ko'rsatmoqda. Boshqacha qilib aytganda, YaHM o'zgarishlaridagi tebranishlarni asosan MA(1) komponenti ifodalaydi.

Shunday qilib, AIC, BIC va HQC mezonlari asosida eng maqbul model sifatida ARIMA(0, 2, 1) tanlandi (AIC=229.33, BIC=231.03 (eng kichik qiymatlar)).

3. Modelni baholash. Tanlanga ARIMA(0, 2, 1) model tartibi Gretl dasturi yordamida tajribadan o'tkazildi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Regression tahlil natijalari⁴

Model 1: ARIMA, using observations 2012-2024 (T = 13)					
Dependent variable: (1-L)^2 YaHM					
Standard errors based on Hessian					
	Coefficient	Std. Error	z	p-value	
const	498.240	77.9371	6.393	<0.0001	***
theta_1	-1.00000	0.248086	-4.031	<0.0001	***
Mean dependent var	425.5769	S.D. dependent var		1709.148	
Mean of innovations	-243.5698	S.D. of innovations		1175.534	
R-squared	0.995130	Adjusted R-squared		0.995130	
Log-likelihood	-111.6689	Akaike criterion		229.3379	
Schwarz criterion	231.0327	Hannan-Quinn		228.9895	
	Real	Imaginary	Modulus	Frequency	
MA					
Root 1	1.0000	0.0000	1.0000	0.0000	

3-jadvaldan kelib chiqib, ARIMA(0, 2, 1) modelining matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta^2 YaHM_t = 498,24 - \varepsilon_{t-1} \quad (2)$$

4. Modelning sifati va statistik ahamiyatligini tekshirish.

3-jadvalga ko'ra, modelning barcha parametrlari Fisherning z mezoniga asosan statistik ahamiyatga ega.

Buni p-qiymatlarning ahamiyatlilik darajasalaridan juda kichikligi bildirib turibdi. $R^2 \approx 0,995$ bo'lib, model amaldagi ma'lumotlarni deyarli mukammal darajada tushuntirib bera olganligini bildiradi.

Qoldiqlarni tekshirish natijasida ular tasodifiy (oq shovqin) tarzida taqsimlangani aniq bo'ldi, bu esa modelning to'g'ri tanlanganini tasdiqlaydi (4-jadval). Unga ko'ra, biror bir holatda qoldiqlarda avtokorrelyatsiya kuzatilmadi.

4-jadval. Qoldiqlar bo'yicha avtokorrelyatsiya funksiyasi⁵


Residual autocorrelation function			
***, **, * indicate significance at the 1%, 5%, 10% levels			
using standard error 1/T^0.5			
LAG	ACF	PACF	Q-stat. [p-value]
1	0.0040	0.0040	
2	-0.1613	-0.1613	0.4616 [0.497]
3	-0.2586	-0.2641	1.7654 [0.414]
4	0.1773	0.1575	2.4464 [0.485]
5	0.0122	-0.0742	2.4501 [0.654]
6	0.1241	0.1225	2.8790 [0.719]
7	-0.0168	0.0657	2.8882 [0.823]
8	-0.0894	-0.1123	3.1999 [0.866]
9	-0.0844	-0.0022	3.5472 [0.895]
10	-0.0954	-0.1829	4.1390 [0.902]
11	-0.0887	-0.1777	4.9057 [0.897]
12	-0.0230	-0.0781	5.0086 [0.931]

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi



Bundan tashqari, qoldiqlarning normal tasdiqlanganligini 3-rasmdan ko'rish mumkin. Unda qoldiqlar bo'yicha $\chi^2 = 0,653 > 0,05$ enkanligi keltirilgan. Shu bilan birga, qiymatlar deyarli o'ng'iroqcha shaklida ekanligini ham payqash qiyin emas.



3-rasm. Qoldiqlarning normal taqsimlanganligi⁶.

Shuningdek, modelning approksimatsiya xatoligi ko'rsatkichi – $MAPE \approx 6,16\%$ – iqtisodiy prognozlashda qabul qilinadigan daraja 10%dan past ekanini bildiradi.

5. Prognozlash. (2) modelga asosanib, Surxondaryo viloyati YaHM ning 2026-2031 yillar uchun prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (5-jadval).

5-jadval. Prognoz qiymatlar va ishonch intervallari⁷


For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$				
Obs	YaHM	prediction	std. error	95% interval
2010	3394.70	undefined	undefined	
2011	5217.10	undefined	undefined	
2012	6436.40	7215.16	undefined	
2013	7436.40	8471.89	undefined	
2014	9213.20	9704.16	undefined	
2015	11114.4	11829.1	undefined	
2016	12179.6	13981.1	undefined	
2017	16354.4	15459.3	undefined	
2018	21229.4	20265.3	undefined	
2019	25473.1	25687.8	undefined	
2020	27571.6	30271.4	undefined	
2021	33591.1	32769.7	undefined	
2022	39201.8	39320.4	undefined	
2023	46999.2	45486.1	undefined	
2024	54354.1	53859.7	undefined	
2025	undefined	61712.9	1175.53	(59408.9, 64016.9)
2026	undefined	69569.9	1662.46	(66311.5, 72828.2)
2027	undefined	77925.1	2036.08	(73934.5, 81915.8)
2028	undefined	86778.6	2351.07	(82170.6, 91386.6)
2029	undefined	96130.3	2628.57	(90978.4, 101282.)
2030	undefined	105980.	2879.46	(100337., 111624.)
2031	undefined	116329.	3110.17	(110233., 122424.)

6 Muallif ishlanmasi

7 Muallif ishlanmasi




Ishlab chiqilgan prognoz qiymatlar va dastlabki raqamlarning mosligi tekshirildi (4-rasm).



4-rasm. Prognoz qiymatlar va dastlabki raqamlarning mosligi⁸.

4-rasmda haqiqiy qiymatlar va prognoz qiymatlari o'zaro juda yaqin joylashganligini ko'rish mumkin. 2012–2024 yillar uchun model YaHMni aniq takrorlamoqda. Prognoz davri uchun chizma yuqoriga qarab barqaror trendda davom etmoqda. Bu esa hududda iqtisodiy salohiyatning izchil oshishini bildiradi. Ishtirok etgan ishonchlilik oralig'ining keng emasligi prognozlarning barqaror va ishonchli ekanini ko'rsatadi.



5-rasm. Surxondaryo viloyati YaHMning o'sish darajalari va ularning prognozi⁹

8 Muallif ishlanmasi
9 Muallif ishlanmasi



2025–2031 yillarga mo'ljallangan prognoz natijalariga ko'ra, Surxondaryo viloyati YaHM hajmi izchil oshib boradi va 2025 yilda 61,7 trln so'mdan 2031 yilda 116,3 trln so'mga yetadi. Bu esa yetti yil ichida ko'rsatkichning ikki baravar ortishini anglatadi. Prognoz natijalarida YaHMning yillik o'sish sur'ati dastlab 113,5% bo'lsa, keyingi yillar deyarli shu daraja saqlanib qoladi (5-rasm). Ya'ni viloyat iqtisodiyoti yuqori sur'atlarda o'sishda davom etadi, ammo bazaning kengayishi sababli o'sish tezligi biroz sekinlashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2010–2024 yillar davomida Surxondaryo viloyati YaHM ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich yuqori sur'atlarda o'sib borgan. Agar 2010 yilda uning hajmi 3,4 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 54,3 trln so'mga yetgan. Bu davrda ayrim yillarda yuqori sakrashlar kuzatilgan (masalan, 2017 va 2018 yillarda), 2020 yilda esa pandemiya ta'siri sezilib, o'sish sur'ati biroz pasaygan. Ammo 2021 yildan boshlab tiklanish kuzatilgan va 2022–2024 yillarda o'sish sur'atlari 104–106% oralig'ida barqarorlashgan. Umuman olganda, 15 yillik davrda YaHM hajmi deyarli 16 barobarga oshgan.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, kelgusi yillarda Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti barqaror o'sish trayektoriyasida bo'ladi. Shu bilan birga, hududda ishlab chiqarish hajmining keskin oshishi infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy xizmatlar sohaslariga qo'shimcha yuklama beradi. Shuning uchun prognoz natijalarini amaliyotga tatbiq etishda YaHM hajmining nominal emas, balki real o'sishini ham hisobga olish lozim. Bu esa hududiy iqtisodiy siyosatni yanada puxta rejalashtirish va barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelindi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti so'nggi o'n besh yil davomida barqaror va yuqori sur'atlarda o'sib kelayotganini ko'rsatdi. 2010 yilda 3,4 trln so'mni tashkil etgan YaHM 2024 yilga kelib 54,3 trln so'mga yetdi, ya'ni deyarli 16 baravarga oshdi. Bu ko'rsatkich hudud iqtisodiy salohiyatining tobora ortib borayotganini va ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayib borayotganini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, o'sish sur'atlari 2020 yilda pandemiya ta'sirida pasaygan bo'lsa-da, 2021 yildan boshlab yana tiklanganini kuzatish mumkin.

ARIMA modeli asosida olib borilgan ekonometrik modellash natijalariga ko'ra, Surxondaryo viloyati YaHM 2025–2031 yillarda barqaror o'sishda davom etadi. Prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025 yilda YaHM hajmi 61,7 trln so'mni tashkil etsa, 2031 yilda 116,3 trln so'mga yetadi. Bu esa yetti yil davomida ko'rsatkichning deyarli ikki baravar ortishini anglatadi. Shu bilan birga, o'sish sur'atlari dastlab yuqori bo'lib, keyingi yillarda bazaning kattalashishi sababli biroz sekinlashadi, ammo umumiy yo'nalish ijobiy trendni saqlab qoladi.

Umuman olganda, YaHMning bunday yuqori ko'rsatkichlari viloyat iqtisodiyotining investitsiya jozibadorligini oshiradi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va aholi bandligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, nominal o'sish bilan bir qatorda real o'sishni ham nazarda tutish zarur, chunki narxlar omili yuqori bo'lgan sharoitda iqtisodiy ko'rsatkichlarning haqiqiy samaradorligi pasayib ketishi mumkin.

Olingan natijalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Hududiy investitsiyalarni kengaytirish: Prognoz natijalarida ko'rsatilgan yuqori o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytirish lozim. Xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi loyihalarni yo'lga qo'yish muhimdir.

2. Infratuzilmani rivojlantirish: YaHM hajmining keskin o'sishi transport, energetika va logistika tizimlariga qo'shimcha yuklama beradi. Shu bois, hududiy infratuzilma loyihalarini tezkor amalga oshirish va zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish zarur.

3. Bandlik va ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlash: Iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda aholining turmush darajasini oshirish uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga investitsiyalarni kengaytirish tavsiya etiladi.

4. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: Nominal YaHM o'sishidan tashqari, real iqtisodiy ko'rsatkichlarni saqlab qolish uchun inflyatsiyani nazorat qilish, samarali pul-kredit siyosatini yuritish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kerak.

5. Prognoz natijalaridan amaliy foydalanish: ARIMA modelidan olingan natijalarni hududiy rivojlanish dasturlarida, budget xarajatlarini rejalashtirishda va uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilishda keng qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Toriola K.A. Economic development / development economics. – Nigeria, Hallmark University, 2021. – 99 p.
2. Игнатьев В.М. Валовой региональный продукт: факторы влияния. Наука, техника и образование. №4 (10). 2015. – 2 с.
3. Ильясова К.Х. Производство и использование валового регионального продукта. Проблемы Науки. №34 (76). 2016. – 4 с.
4. Hassan Ali H.M., Ali Haleeb A.M. Modelling GDP for Sudan using ARIMA. MPRA Paper No. 101207. 2020



5. Miah M.M., Tabassum M., Rana M.Sh. Modelling and Forecasting of GDP in Bangladesh: An ARIMA Approach. Journal of mechanics of continua and mathematical sciences. Vol.-14, No.-3, May-June, 2019, pp. 150-166.
6. Muslimova, F. O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ARIMA modeli yordamida bashorat qilish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Jild 2 № 7, 2024. - pp. 362-368
7. Kinjayev K.N., Turayev B.E. Forecasting the Digital Economic Indicators of the Republic of Uzbekistan Using ARIMA Models. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education, Vol. 2(10), 2024. - pp. 668-673.
8. Dowletgeldiyeva A., Kakyshov E. Time series analysis using ARIMA. Инновационная наука. №12-1-2, 2024. – 3 p.
9. Трегуб А.В., Трегуб И.В. Методика построения модели ARIMA для прогнозирования динамики временных рядов. Вестник МГУЛ – Лесной вестник. №5, 2011. – 5 с.
10. www.surxonstat.uz – Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>